

QO‘QON ADABIY MUHITIDA DOSTONCHILIK MAKTABINING SHAKLLANISHI

Ahmadaliyev Sardorbek Zafarjon o‘g‘li

Qo‘qon davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII asr oxiri va XIX asr davomida Markaziy Osiyoning muhim madaniy-ma'rifiy markazlaridan biri sifatida shakllangan Qo‘qon adabiy muhitida dostonchilik maktabining vujudga kelishi, o‘ziga xos taraqqiyot tamoyillari va asosiy omillari tadqiq etilgan. Muallif Qo‘qon dostonchilik maktabining shakllanishidagi tarixiy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy hamda adabiy-an'anaviy omillarni chuqur tahlil qiladi. Maqolada mumtoz epik an'analar (Navoiy, Jomiy maktabi) va xalq og'zaki ijodining uzviy sintezi natijasida yuzaga kelgan dostonlarning o‘ziga xos xususiyatlari - tarixiylik, publitsistik ruh va ma'rifiy yo‘nalish kabi jihatlar yoritib berilgan. Shuningdek, Qo‘qon xonligi davridagi dostonchilik an'analarining tadqiq etilish tarixi, xususan, jadid olimlaridan tortib mustaqillik davri adabiyotshunosligigacha bo‘lgan ilmiy yondashuvlar hamda sho‘ro davri mafkurasining adabiy jarayonga ta'siri xolis baholangan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, dostonchilik maktabi, epik tafakkur, Amir Umarxon, mumtoz an'ana, xalq og'zaki ijodi, tarixiylik, publitsistik ruh.

Аннотация: В данной статье исследуются возникновение, принципы развития и ключевые факторы школы эпической поэзии (дастана) в литературной среде Коканда, который развивался как крупный культурный и образовательный центр Центральной Азии в конце XVIII и XIX веков. Автор тщательно анализирует историко-политические, социально-просветительские и литературно-традиционные факторы, сформировавшие кокандскую эпическую школу. Исследование подчеркивает отличительные характеристики этих эпосов - такие как историческая точность, журналистский дух и дидактическая направленность - возникающие в результате органического синтеза классических эпических традиций (школы Навои и Джами) и фольклора. Кроме того, в статье оценивается историография исследований кокандской эпической традиции, начиная от ученых-джадидов и заканчивая литературной критикой эпохи независимости, а также объективно оценивается влияние советской идеологии на литературный процесс того периода.



Ключевые слова: литературная среда Коканда, школа эпической поэзии (дастан), эпическое мышление, Амир Умарксон, классическая традиция, фольклор, историчность, журналистский дух, литературная критика, исследования Джадида.

Abstract: *This article explores the emergence, development principles, and key factors of the epic poetry (dastan) school within the Kokand literary environment, which evolved as a major cultural and educational center in Central Asia during the late 18th and 19th centuries. The author thoroughly analyzes the historical-political, socio-enlightenment, and literary-traditional factors that shaped the Kokand epic school. The study highlights the distinct characteristics of these epics-such as historical accuracy, journalistic spirit, and didactic orientation-arising from the organic synthesis of classical epic traditions (the schools of Navai and Jami) and folklore. Furthermore, the article evaluates the historiography of research on the Kokand epic tradition, spanning from Jadid scholars to independence-era literary criticism, while objectively assessing the impact of Soviet ideology on the literary process of the period.*

Keywords: *Kokand literary environment, epic poetry school (dastan), epic thinking, Amir Umarxon, classical tradition, folklore, historicity, journalistic spirit, literary criticism, Jadid studies.*

Kirish

XVIII asr oxiri – XIX asr davomida Qo‘qon xonligi Markaziy Osiyodagi muhim siyosiy va madaniy markazlardan biriga aylandi. Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Andijon singari shaharlar nafaqat savdo va hunarmandchilik, balki ilm-fan, adabiyot va san‘at rivojlangan muhit sifatida shakllandi. Xonlik saroylari, madrasalar, xattotlik va kitobat markazlari adabiy hayotning muhim tayanch nuqtalariga aylandi. Ayniqsa, Umarxon va Nodira davridan boshlab Qo‘qon adabiy muhiti nisbatan barqaror adabiy muhit sifatida shakllanib, shoirlar, tarixchilar, xattotlar va tarjimonlar faoliyat yuritgan markazga aylandi.

Mazkur muhitda mumtoz adabiyot an‘analari (Navoiy, Jomiy, Firdavsiy maktabi) bilan bir qatorda, xalq og‘zaki ijodi, baxshichilik va qissaxonlik an‘analari ham faol mavjud bo‘lib, ular epik tafakkurning rivojiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Ana shu ikki manbaning yozma mumtoz adabiyot va og‘zaki epik ijodning uzviy qo‘shilishi Qo‘qon dostonchilik maktabining shakllanishi uchun muhim zamin yaratdi.



Qo‘qon dostonchilik maktabining shakllanish omillari. Qo‘qon adabiy muhitida dostonchilikning mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishi bir necha asosiy omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, tarixiy-siyosiy omil. XIX asrda Qo‘qon xonligi murakkab siyosiy jarayonlarni boshdan kechirdi: ichki ziddiyatlar, taxt talashuvlari, tashqi bosqinlar, Rossiya mustamlakachiligi xavfi kuchaydi. Bu jarayonlar adabiyotda tarixiy tafakkur va publitsistik ruhning kuchayishiga olib keldi. Doston ana shu murakkab voqelikni yoritish, tarixni badiiy idrok etishning qulay shakliga aylandi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-ma‘rifiy omil. Qo‘qon muhitida shoir endi faqat ishqiy lirika bilan cheklanib qolmay, jamiyat, davlat, axloq, ilm va jaholat muammolariga faol munosabat bildiruvchi ijodkor sifatida namoyon bo‘ldi. Doston esa bunday keng mavzularni qamrab olish imkonini beruvchi epik shakl bo‘ldi.

Uchinchidan, adabiy-an‘anaviy omil. Qo‘qon shoirlari Navoiy dostonchiligi, fors-tojik epik an‘anasi (“Shohnoma”, “Xamsa” an‘analari), shuningdek, xalq dostonchiligi tajribasiga tayandilar. Biroq ular bu an‘analarni bevosita takrorlash bilan cheklanmay, o‘z davrining ruhiga mos epik model yaratishga intildilar.

Qo‘qon adabiy muhitida shakllangan dostonchilik maktabi bir qator o‘ziga xos belgilar bilan tavsiflanadi:

Tarixiylik va zamonaviylik uyg‘unligi. Qo‘qon dostonlarida tarixiy shaxslar, real voqealar, muayyan davr manzarasi aniq sezilib turadi. Shoirlar afsonaviy syujetlar bilan bir qatorda zamonaviy tarixiy materialga ham murojaat qildilar. Natijada tarixiy-epik va tarixiy-badiiy dostonlar yuzaga keldi. Bu dostonlarda tarix xronika tarzida emas, balki muallif bahosi, falsafiy xulosalari bilan uyg‘un holda badiiy qayta yaratiladi.

Publitsistik va ma‘rifiy yo‘nalishning kuchayishi. Qo‘qon dostonlarida muallif ovozi faol: shoir jamiyat muammolariga bevosita murojaat qiladi, adolat, hukmdor mas‘uliyati, xalq ahvoli, ilm va jaholat masalalarini ko‘taradi. Shu jihatdan Qo‘qon dostonchiligi mumtoz epik an‘anani ijtimoiy-falsafiy va publitsistik ruh bilan boyitadi.

Janr sintezi. Qo‘qon dostonlari sof romantik-epik shakl bilangina cheklanmay, balki tarixiy-badiiy, didaktik, publitsistik, ba‘zan esa memuar unsurlarni o‘zida birlashtiradi. Bu hol doston janrining funksional imkoniyatlarini kengaytirgan.



Milliy va mintaqaviy ruh. Qo'qon dostonlarida Farg'ona vodiysi hayoti, urf-odatları, siyosiy muhiti, xalq kayfiyati yaqqol aks etadi. Bu jihat Qo'qon dostonchilik maktabini boshqa adabiy muhitlardan ajratib turuvchi muhim belgi hisoblanadi.

Qo'qon adabiy muhitida dostonchilikning rivojida bir qator shoirlarning xizmatlari muhimdir. Bu jarayonda tarixiy-didaktik dostonlar yaratgan ijodkorlar, adabiy muhitda faol qatnashgan shoir-tarixchilar, saroy va xalq muhitini bog'lagan adiblar yetishib chiqdi. Ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmida dostonchilik ijtimoiy-tarixiy tafakkur shakliga aylana bordi. Bu jarayon keyinchalik Umidiy-Havoii, Ochildimurod Mirii singari ijodkorlar asarlarida yanada ravshan namoyon bo'ladi. Ularning dostonlarida Qo'qon maktabining asosiy belgisi sifatida quyidagilar mujassam bo'ladi:

- tarixiy voqelikni epik tafakkur orqali idrok etish;
- muallif pozitsiyasining ochiqligi;
- adolat, ma'rifat, vatan va xalq taqdiri g'oyalarining yetakchiligi.

Shunday qilib, Qo'qon adabiy muhitida dostonchilik maktabi XVIII asr oxiri – XIX asr davomida murakkab tarixiy-ijtimoiy jarayonlar ta'sirida shakllandi. Bu maktab mumtoz epik an'anani davom ettirgan holda, uni tarixiy tafakkur, publitsistik ruh va ma'rifiy g'oyalar bilan boyitdi. Natijada Qo'qon dostonchiligi o'zbek epik adabiyotida alohida bosqich sifatida namoyon bo'lib, keyingi davr dostonchiligi va jadid epik tafakkuri uchun muhim zamin yaratdi.

Ikki asr mobaynida Qo'qon adabiy maktabi o'zining yorqin iste'dodlari, lirik hamda epik poeziyasi bilan o'zbek adabiyotining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi manzarasini ko'rsatib turadi. Negaki, mazkur asrlar oralig'ida ushbu maktabdan yuzga yaqin shoirlar, nosirlar, fozillar yetishib chiqqan. Ular o'zbek xalqining shu davr oralig'idagi ma'naviy olamini to'kis yoritib berganlar. To'g'ri, bu davr shoirlarining ko'pida taqlidchilik izlari sezilsa-da, ayrimlari o'lmas asarlari bilan o'zbek adabiyoti xazinasiga munosib hissalarini qo'sha oldilar. Afsuski, bu maktabning sanoqli qalamkashlari sanoqli asarlari tadqiq qilindi, ular yuzasidan ilmiy to'xtamlar havola etildi.

Qo'qon xonligi va uning hukmdori Said Umarxon XIX asrda Markaziy Osiyodagi madaniy-adabiy maktabning shakllantirishga rahnamo bo'ldi va munosib hissa qo'shdi. Ushbu davrda she'riyat bir qadar rivojlandi. Uzoq yillar mobaynida anchayin susayib qolgan dostonchilik oyoqqa tura boshladi. Mazkur maktabning ayrim shoirlari bu davrga qadar ustuvor bo'lib kelgan dostonchilik an'analarini oyoqqa qo'yidilar. Bir qadar adiblar adabiy ta'sir va



adabiy an'analar, xalq og'zaki ijodi ta'sirida milliy dostonchilikning yangicha yo'nalishlarini yuzaga keltirdilar. Hatto "Xamsa" bitishga urinishlar bo'ldi.

Mutaxassislar Umarxon davri adabiyotini XV asrdagi Husayn Boyqaro boshchiligidagi Hirot adabiy muhitiga tenglashgan adabiy-estetik voqelik bo'lganligini ta'kidlaydilar. Ahmad Zakiy Validiy Qo'qonda Amir Umarxon, Xivada Muhammad Rahimxon Feruz davrlarida Navoiy zamonasidagi muhit mavjud bo'lganligini e'tirof etadi. Qo'qon adabiy muhitining tarixiy-badiiy tavsifi ko'plab manbalarda o'z ifodasini topgan. Bular sirasiga Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkirasi "Umarnoma" asari, Mushrif Isfaragiyning "Shohnomai Nusratpayom", Hakimxon To'raning "Muntaxab ut tavorix", Is'hoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi", Dilshodi Barnoning "Tarixi muhojiron", Mirza Olim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin", Mulla Olim Maxdum Hojining "Tarixi Turkiston" kabi asarlari kiradi. Mazkur tarixiy manbalar ayrim sub'ektiv-tendensioz jihatlariga qaramay, ularning aksariyati bevosita Amiriy zamoni va Qo'qon adabiy muhitining gullab-yashnagan pallasida yaratilgani yoki shu davr manbalariga asoslangani bilan ahamiyatlidir.

Qo'qon adabiy muhitining ilmiy asosda tadqiq etilishining boshlanishi jadid olimlari faoliyati bilan bog'liq. Abdurauf Fitratning "XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotig'a umumiy bir qarash", Miyon Buzruk Solihovning "O'rta Osiyo va o'zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash" nomli tadqiqotlarida Amiriy va u asos solgan Qo'qon adabiy muhitining o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni haqida to'xtab o'tilgan. Jumladan, Fitrat: "Umarxon zamonida saroy atrofida bir ko'b shoirlar yig'ildilar. Bular orasida Fazliy, Hozir, Xijlatxon kabi san'atda yuqori darajada turganlari bor edi" deb e'tirof etadi. Istiqloq adabiyotshunosligiga qadar Qo'qon adabiy muhiti va uning namoyandalari ijodi yuzasidan yaratilgan fundamental tadqiqotlar akademik A.Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti" (1961) nomli monografiyasida o'z ifodasini topdi. Tadqiqot o'zi yaratilgan davrning hukmron g'oyasi – sho'roviy mafkura ta'siridan xoli bo'lmasa-da, fakt va ma'lumotlarga boyligi bois hozirga qadar asosiy ilmiy manbalardan biri bo'lib kelmoqda. Mustaqillik davrida Qo'qon xonligi va adabiy muhitini ilmiy xolislik asosida tadqiq etish tamoyiliga e'tibor qaratildi. Bu davrda T.K. Beysembiev, B.M Babadjanov., SH. Vohidovlarning Qo'qon xonligi tarixini chuqur o'rganishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlari yaratildiki, ular mazkur tarix bilan bevosita bog'liq bo'lgan adabiy muhitga oid manbalar haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.



Hokimiyat kommunistik mafkuraga asoslangan SHo'ro hukumati qo'liga o'tgandan so'ng boshlangan Yangi totalitar siyosatga muvofiq o'zgarishlar ijtimoiy-adabiy qatlamlarda yuz ko'rgizdi: mafkurada, san'atda, adabiyotda, uning tobora zo'r kuch olib borgan "temir" talablarida, bu talablar bilan shakllangan ijodkor ongining voqelikni badiiy idrok etishida yangi adabiy "qonuniyatlar" mevasi bo'lgan asar qahramoni hayotni faqat yorqin ranglarda ko'ruvchi, pirovard maqsadini moddiy farovonlik va uning uchun kurashda deb biluvchi shaxs bo'lishi kerak edi. Ayni sharoitda ham asl axloqiy-ma'naviy qadriyatlarga sadoqat baland bo'lgan Qo'qon adabiy muhitida asriy mumtoz an'analarning munosib davomchilari bo'lgan bir qator ijodkorlar yetishib chiqdilar. Bu davr Qo'qon adabiy muhitida G'aribiy-Shuhrat, Nasimiy, Firoqiy, Charxiy, Shukriy, Haydar Shaydoiy, Chustiy, Sobir Abdulla, Habibiy kabi ijodkorlarning o'ziga xos o'rni bor. Ularning aksariyati yangi tuzumga nisbatan murosa yo'lini tutish majburiyatida bo'lgan bo'lsalar-da, o'z ijodlarida salafлари an'analariга sodiqlikni mumtoz she'riyatning poetik-shakliy mundarijasini saqlash orqali namoyon etdilar. SHu bilan birgalikda, mazkur shoirlar orasida yangi davr mafkurasini o'ziga singdira olmagan va buni nafaqat mumtoz poetik shakllarda, balki g'oyaviy jihatdan ham ro'y-rost ifodalashga jur'at etgan oz sonli ijodkorlar ham bo'lgan.

Xulosa

O'zbek adabiyotshunosligida dostonchilikni o'rganish jarayoni ham bosqichma-bosqich takomillashgani kuzatildi: dastlab to'plash va nashr etish, keyinchalik janr-nazariy tahlil, tarixiy-adabiy yondashuv, matnshunoslik, tipologik-qiyosiy izlanishlar va g'oyaviy-badiiy konsepsiya tahliliga o'tildi. Natijada dostonlar endilikda faqat syujet bayoni sifatida emas, balki tarixiy xotira, ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlarning badiiy ifodasi sifatida tadqiq qilinmoqda. Bu hol doston janrining adabiy jarayondagi o'rni va ilmiy talqin doirasini yanada kengaytirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Beysembiev T.K. Kokandskoe xanstvo. Tashkent: Fan, 1996. B. 12.
- 2 Babadjanov B.M. Kokandskoe xanstvo i religiya. Tashkent: Fan, 1998. B. 94.
- 3 Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1976. B. 212.



- 4 Мулла Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Қарши: Насаф, 1992. Б. 36–45.
- 5 Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild (Ilmiy asarlar). Toshkent, Ma'naviyat, 2000. B. 59–60.
- 6 Miyon Buzruk. O'rta Osiyo va o'zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash. 1-qism. Toshkent, O'zdavnashr, 1930. B. 74–86.
- 7 Fitrat A. XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotig'a umumiy bir qarash. Tanlangan asarlar. II jild. T.: Ma'naviyat, 2000. B.59.
8. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. T.: Fan, 1961. B. 78.9
- 9.Бейсембиев Т.К. Кокандская историография. Исследование по источниковедению средней азии XVIII–XIX веков. Алматы: ТОО “Print-S”, 2009. 1263 с.,
- 10.Beisembiev T.K. Annotated Indices to the Kokand Chronicles. Tokyo: ILCAA, 2008. ;
- 11.Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио–Ташкент, 2010.;
- 12.Vohidov Sh. XIX-XX asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislik. Toshkent: Akademnashr, 2010.

